

**SUN'IY INTELLEKT VA ZAMONAVIY FILOLOGIK
YO'NALISHLAR INTEGRATSIYASI**

Xidoyatova Robiya Qilichovna,
University of business and science
Toshkent filiali Tillar kafedrası o'qituvchisi
E-pochta:robeyakhidoyatova22@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining zamonaviy filologik yo'nalishlarda qo'llanishi tahlil qilinadi. Maqolada SI yordamida talabalar nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, matnlarni tahlil qilish va tarjima sifatini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, filologiya, til o'rganish, nutq tahlili, lingvistik tadqiqot, interaktiv o'qitish, mustaqil ta'lim.

Аннотация. В данной статье анализируется использование технологий искусственного интеллекта (ИИ) в современных филологических направлениях. Рассмотрены возможности ИИ для развития речевых навыков студентов, эффективной организации процесса самостоятельного обучения, анализа текстов и повышения качества перевода.

Ключевые слова: искусственный интеллект, филология, изучение языка, анализ речи, лингвистическое исследование, интерактивное обучение, самостоятельное обучение.

Annotation. This article analyzes the application of artificial intelligence (AI) technologies in modern philological fields. The article examines the possibilities of developing students' speech skills using AI, effectively organizing the independent learning process, analyzing texts, and improving translation quality.

Keywords: artificial intelligence, philology, language learning, speech analysis, linguistic research, interactive learning, independent study.

Kirish. Bugungi texnologiya rivojlandan asrimizda Sun'iy intellekt kirib kelamagan soha qolmadi. Shu qatorda ta'limda ham so'nggi yillarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Shuningdek, til o'rganishda katta imkoniyatlar ochib bermoqda. Xususan, filologik yo'nalishlarda SI talabalarga matnlarni tahlil qilish, tarjima qilish, nutq ko'nikmalarini rivojlantirish va mustaqil o'qish jarayonini samarali qilishda yordam beradi. Masalan, ingliz tili talabalari chatbot yordamida real hayotiy suhbat mashqlari qilishi mumkin. Bu nafaqat grammatikani mustahkamlashga, balki talaffuz va nutq oqimini yaxshilashga xizmat qiladi. Xohlagan mavzuda o'rganuvchi o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumot topa oladi. Shu bilan birga, SI yordamida katta hajmdagi matnlarni tez tahlil qilish va yangi so'zlarni o'rganish imkoniyati mavjud.

Asosiy qism. Sun'iy intellektni filologik yo'nalishlarda qo'llashni o'rganish uchun quyidagi metod va vositalardan foydalanildi. Onlayn chatbotlar va til o'rganish platformalari: Talabalar AI chatbotlar orqali real hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qiladilar: mehmonxona bron qilish, aeroportda ro'yxatdan o'tish, ish uchrashuvi mavzularida rol o'yinlari. Chatbot talabaning javobini baholaydi, grammatik xatolarni

ko‘rsatadi va takliflar beradi. AI chatbotlar orqali kommunikativ o‘qitishda talabalar sun‘iy intellekt asosidagi chatbotlar bilan muloqot qilib, real vaziyatlarni simulyatsiya qildi. M.X.Abdusamadova o‘z tadqiqotida sun‘iy intellekt vositalari talabalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda samarali ekanligini, ayniqsa, interaktiv muloqot orqali tilni tabiiy o‘zlashtirishga yordam berishini ta’kidlaydi [1]. Zamonaviy tadqiqotlarda esa Huang, Hew va Fryer chatbotlar bilan ishlash talabalar nutq faolligini sezilarli darajada oshirishi va ularni erkin gapirishga undashini ko‘rsatadi [6].

Gamifikatsiya elementlari: darslar mini-o‘yinlar, ball tizimi, reytinglar va qiziqarli vazifalar bilan boyitiladi. Misol: “Business partner” mavzusida talabalar guruh bo‘lib, turli ish vazifalarini bajarib, ball to‘plashi va natijalarini baholashadi. Dars jarayonida ball tizimi, badge (mukofot belgilar), leaderboard (reyting) kabi elementlar qo‘llanildi. D.Karimova o‘z tadqiqotida interaktiv metodlar, xususan, o‘yin va gamifikatsiya elementlariga asoslangan darslar talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshirishini amaliy tajribalar orqali asoslab beradi. Olimaning ta’kidlashicha, an’anaviy darslarda talabalar ko‘proq passiv ishtirokchi bo‘lib qolsa, o‘yin asosidagi mashg‘ulotlarda ular faol ishtirok etuvchi subyektga aylanadi.

U o‘z ishida tajriba va nazorat guruhlari bilan ishlagan holda, gamifikatsiya qo‘llanilgan guruhda talabalar:

darslarda faolroq qatnashgani;

vazifalarni tezroq va qiziqish bilan bajargani;

o‘z fikrini erkin ifoda eta boshlagani kabi natijalarni kuzatganini qayd etadi [15].

Shuningdek, Karimova gamifikatsiya elementlari (ball tizimi, rolli o‘yinlar, reyting) talabalarda ichki motivatsiyani shakllantirishini va bu jarayon ularning mustaqil ta’limga bo‘lgan qiziqishini ham oshirishini alohida ta’kidlaydi. Zamonaviy tadqiqotchi Zainuddin gamifikatsiya o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish bilan birga ularning faol ishtirokini ham kuchaytirishini ta’kidlaydi [7]. Shuningdek, Sailer & Homner gamifikatsiya kognitiv va emotsional jalb etishni bir vaqtda rivojlantirishini aniqlagan [8]. Ovozli mashqlar va talaffuz tahlili: Talabalar Sun‘iy intellekt ilovalari orqali talaffuz va intonatsiyani mashq qiladi. Ilova talabani baholaydi va yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar beradi. Zamonaviy til o‘qitish jarayonida talaffuzni to‘g‘ri shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, xorijiy tilni o‘rganishda fonetik ko‘nikmalarni rivojlantirish talabalar uchun murakkab bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, sun‘iy intellekt asosidagi ovozli texnologiyalar talaffuzni o‘rgatishda samarali vosita sifatida keng qo‘llanmoqda. Sun‘iy intellekt yordamida ishlaydigan ovozli ilovalar (speech recognition va speech analysis tizimlari) talabaning nutqini avtomatik ravishda aniqlaydi, uni standart talaffuz bilan solishtiradi va xatolarni ko‘rsatadi. Bu jarayon talabaga o‘z xatolarini darhol ko‘rish va ularni tuzatish imkonini

beradi. McCrocklin o‘z tadqiqotida ta’kidlaganidek, AI asosidagi talaffuz vositalari talabalar nutqidagi fonetik xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda an’anaviy usullarga nisbatan samaraliroq hisoblanadi [10]. Shuningdek, N.To‘xtayeva fonetik ko‘nikmalarni shakllantirishda raqamli texnologiyalar, ayniqsa, ovozli mashqlar orqali o‘qitish usullari talabalar talaffuzini yaxshilashda muhim rol o‘ynashini qayd etadi [17]. Masalan, talaba ingliz tilidagi gapni ovozli tarzda o‘qiydi, AI tizimi esa uning talaffuzini baholab, qaysi tovushlarda xato borligini ko‘rsatadi. Bu esa individual yondashuvni ta’minlaydi va talabaning o‘z ustida mustaqil ishlashiga yordam beradi. Natijada sun’iy intellekt asosidagi ovozli mashqlar nafaqat talaffuzni yaxshilaydi, balki talabalarda nutqiy ishonchni oshiradi, ularni erkin gapirishga undaydi va real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi.

Natijalar. *Og‘zaki nutqni rivojlantirish.* Talabalar talaffuz va intonatsiyani yaxshilaydi, stresssiz va qiziqarli muhitda real suhbatlarni simulyatsiya qiladi. Masalan, “Travelling for work” mavzusida talabalar Future Simple va Future Continuous zamonlarini amaliyotda ishlatadi. Abdusamadova mana shu maqolasida shunday tahlil qiladi: AI chatbotlar orqali talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi va ular real hayotiy vaziyatlarga tayyor bo‘ladi [4].

Yozma nutq va grammatika ko‘nikmalari. Talabalar yozgan matnlar SI orqali tahlil qilinadi va grammatik xatolar, leksik nomuvofiqliklar aniqlanadi. Natijada talaba o‘z xatolarini tushunib, ularni takrorlamaslikni o‘rganadi. Abdusamadova mana shu maqolasida shunday tahlil qiladi: avtomatlashtirilgan grammatika tahlili talabalarga xatolarini mustaqil aniqlash va tuzatish imkonini beradi, bu esa yozma nutqni yaxshilashga yordam beradi [4].

Matn tahlili va tarjima. Katta hajmdagi matnlarni tez tahlil qilish va asosiy mazmunni ajratish imkoniyati mavjud. Talabalar tarjima mashqlarida avtomatik vositalar yordamida xatolarni ko‘rib chiqadi va o‘rgangan bilimlarini mustahkamlaydi. Abdusamadova mana shu maqolasida shunday tahlil qiladi: AI yordamida talaba katta hajmdagi matnlarni tez tahlil qilishi va ularni stilistik va leksik jihatdan moslashtirishi mumkin, bu tarjima sifatini oshiradi [4].

Mustaqil o‘qish va ijodiy ishlash. Talabalar referat, tezis yoki maqola yozishda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Abdusamadova mana shu maqolasida shunday tahlil qiladi: AI vositalari talabalarga to‘g‘ri ma’lumot topish, materiallarni tartibga solish va tahlil qilishni o‘rgatadi, bu esa mustaqil ishlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi [4].

Interaktiv mashqlar orqali motivatsiya. Gamifikatsiya elementlari darslarni qiziqarli qiladi va talabalarni faol ishtirok etishga rag‘batlantiradi. Abdusamadova mana

shu maqolasida shunday tahlil qiladi: ballar, reytinglar va mini-o‘yinlar talabalarning motivatsiyasini oshiradi va o‘quv jarayonini interaktiv qiladi [4].

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun‘iy intellekt texnologiyalarini filologik ta‘limga integratsiya qilish talabalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Olingan natijalar nafaqat amaliy kuzatuvlar, balki zamonaviy o‘zbek va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari bilan ham mos keladi. Birinchidan, talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarining rivojlanishida AI chatbotlar muhim rol o‘ynaydi. Tajribada talabalar real hayotiy vaziyatlarga yaqin sharoitda muloqot qilish imkoniga ega bo‘ldi. Bu esa ularning nutqiy faolligini oshirdi va erkin gapirish ko‘nikmasini shakllantirdi. Abdusamadova ham o‘z tadqiqotida sun‘iy intellekt asosidagi interaktiv muloqot talabalarning nutqini tabiiy rivojlantirishini ta‘kidlaydi [12]. Shu bilan birga, Huang va hammualliflar chatbotlardan foydalanish talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishini ilmiy asosda isbotlagan [6]. Ikkinchidan, talaffuz va fonetik ko‘nikmalarni rivojlantirishda AI asosidagi ovozli texnologiyalar samarali vosita ekanligi aniqlandi. Talabalar o‘z talaffuzini avtomatik tizimlar orqali tekshirib, xatolarini darhol tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ldi. To‘xtayeva fonetik ko‘nikmalarni shakllantirishda raqamli vositalarning ahamiyatini alohida qayd etadi [17]. McCrocklin esa AI asosidagi talaffuz vositalari nutq aniqligini oshirishini ta‘kidlaydi [10].

Uchinchidan, yozma nutqni rivojlantirish jarayonida AI tizimlari samarali teskari aloqa (feedback) beruvchi vosita sifatida xizmat qildi. Talabalar o‘z yozma ishlaridagi grammatik va uslubiy xatolarni tezda aniqlab, ularni tuzatishga muvaffaq bo‘ldi. Raximov yozma nutqni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar individual yondashuvni ta‘minlashini ta‘kidlaydi [16]. Ranalli esa avtomatik baholash tizimlari yozma nutq sifatini oshirishini ilmiy asoslab beradi [9]. To‘rtinchidan, matn tahlili va tarjima jarayonida sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish talabalarning analitik va tanqidiy fikrlashini rivojlantirdi. Talabalar matn mazmunini chuqurroq anglash, asosiy g‘oyalarni ajratish va tarjima qilish ko‘nikmalarini mustahkamladi. Islomov zamonaviy tarjima texnologiyalari filologik kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutishini ta‘kidlaydi [18]. Yang va hammualliflar esa neyron tarjima tizimlari kontekstni chuqur tushunishga yordam berishini ko‘rsatadi [11]. Beshinchidan, gamifikatsiya elementlarining qo‘llanilishi ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirdi. Talabalar darslarda faolroq ishtirok etdi, ularning motivatsiyasi va qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Karimova o‘z tajribasida gamifikatsiya qo‘llanilgan guruhlarda talabalar faolligi va o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘lganini qayd etadi [15].

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun‘iy intellekt vositalari talabalarni mustaqil ta‘limga yo‘naltirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Talabalar o‘z

bilimini mustaqil ravishda rivojlantirish, ma'lumot izlash va uni tahlil qilish ko'nikmalarini egalladi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, sun'iy intellekt texnologiyalarini filologik ta'limga integratsiya qilish kompleks yondashuvni talab etadi. U nafaqat nutq, yozma va tarjima ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki talabalarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, kelgusida bu texnologiyalarni yanada kengroq joriy etish va metodik jihatdan takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Xulosa. Sun'iy intellekt filologik yo'nalishlar bilan integratsiya qilinganda darslar samarali bo'ladi, talabalarning nutq va tarjima ko'nikmalari rivojlanadi, mustaqil o'qish va ijodiy ishlashga imkon yaratadi. SI o'quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi, talabalarni zamonaviy til ko'nikmalariga tayyorlaydi va real hayotiy vaziyatlarda o'z bilimini qo'llashga o'rgatadi. Sun'iy intellektning filologik yo'nalishlarda integratsiyasi talabalarda talaffuz, grammatik va leksik jihatdan mustahkamlanadi, og'zaki va yozma nutqda ishonch hosil qilishi bilan birga katta hajmdagi matnlarni tez tahlil qilishi va to'g'ri tarjima qilish imkoniyatini beradi, bu esa professional filologik faoliyat uchun muhim o'rin tutadi. Shuningdek, Chatbotlar, interaktiv mashqlar va gamifikatsiya yordamida talaba darslarda faol ishtirok etadi, motivatsiyasi oshadi va bilimlarni qiziqarli tarzda mustahkamlaydi. SI yordamida talaba real hayotiy vaziyatlarda o'z bilimini qo'llashni o'rganadi, bu esa tilni o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdusamadova M.X. *Sun'iy intellekt yordamida ingliz tilini o'qitish metodikasi*. – Toshkent, 2025.
2. Deterding S. *Gamification in Education: What, How, Why Bother?* Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. 2011.
3. Chapelle C.A. *Computer-Assisted Language Learning*. Cambridge University Press, 2011.
4. Levis, J. *Computer Technology in Teaching and Researching Pronunciation*. Annual Review of Applied Linguistics, 27, 184–202. 2007.
5. Koehn, P. *Neural Machine Translation*. Cambridge University Press, 2020.
6. Huang, J., Hew, K. F., & Fryer, L. *Chatbots for Language Learning: A Meta-Analysis*. Educational Research Review, 35, 100427. 2022.
7. Zainuddin, Z., Chu, S.K.W., Shujahat, M., & Perera, C.J. *The Impact of Gamification on Learning and Instruction: A Systematic Review*. Educational Research Review, 30, 100326. 2020.
8. Sailer, M., & Homner, L. *The Gamification of Learning: A Meta-Analysis*. Educational Psychology Review, 32, 77–112. 2020.

AND SCIENCE